

YOSHLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Vaxabova O‘g‘ilxon Tolibjonova

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Solijonova Barnoxon Anvarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi I bosqich 101-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlik davrining psixologik, ma’naviy va axloqiy shakllanish jarayonida o‘zbek xalq og‘zaki ijodining – xususan ertaklar, maqollar va dostonlarning – o‘rniga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, yoshlar shaxsiyatining rivojlanishida xalq ijodiy merosining tarbiyaviy kuchini, ularning tasavvur, tafakkur, axloqiy mezonlar va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy-axloqiy yo‘l ko‘rsatuvchi manbalar, axloqiy mezonlar tarbiya, o‘zbek ertaklari, maqollar, dostonlar, Alpomish, axloqiy shakllanish, ma’naviy qadriyatlar, ideal qahramonlar, psixologik yetuklik

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK ORAL LITERATURE FROM THE PERSPECTIVE OF YOUTH PSYCHOLOGY

Abstract: This article focuses on the role of Uzbek folk oral literature - in particular, fairy tales, proverbs and epics - in the psychological, spiritual and moral formation of youth. This is comprehensively analyzed the educational power of folk creative heritage in the development of the youth personality, their role in the formation of imagination, thinking, moral criteria and social values

Keywords: Folk oral literature, spiritual and moral guiding sources, moral criteria, powerful psychological tool, education, Uzbek fairy tales, proverbs, epics, Alpomish, moral formation, spiritual values, ideal heroes, psychological maturity

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье рассматривается роль узбекского народного устного творчества, в частности сказок, пословиц и эпосов, в процессе психологического, духовного и нравственного формирования молодежи. Всесторонне анализирует

воспитательную силу народного творческого наследия в развитии личности молодежи, его роль в формировании воображения, мышления, нравственных критериев, общественных ценностей.

Ключевые слова: Устное народное творчество, духовно-нравственные ориентиры, нравственные критерии, мощное психологическое средство, воспитание, узбекские сказки, пословицы, эпосы, Алпомиш, нравственное формирование, духовные ценности, идеальные герои, психологическая зрелость.

Yoshlik davri inson hayotining eng serharakat, izlanishlarga boy bo'lgan murakkab bosqichidir. Bu davr odatda o'smirlikning ohiri va o'spirinlik davrlarini o'z ichiga oladi. Shu tufayli inson shaxsiyati aynan shu davrda jadal shakllanadi, shuningdek, atrof-muhitni anglash, o'zini jamiyatda tutish, ijtimoiy normalarni qabul qilish va ularga munosabat bildirish jarayoni boshlanadi. Psixologlar bu bosqichni shaxs rivojida o'ta muhim, hatto hal qiluvchi davr sifatida baholaydilar.

Avvalo, yoshlar bu davrda o'zligini izlaydi, "Men kimman?", "Nima uchun yashayapman?", "Hayotimdagi maqsad nima?" kabi falsafiy savollarni o'ziga beradi. Shu sababli, ular uchun **ma'naviy-axloqiy yo'l ko'rsatuvchi manbalar**, jumladan, xalq og'zaki ijodi nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ladi¹.

Shularga mansub bo'lgan ertak va dostonlardagi qahramonlar, maqollardagi chuqur ma'noli fikrlar yoshlar shaxsiyatida **axloqiy mezonlar** shakllanishiga xizmat qiladi.

Yoshlik davrida hissiyotlar kuchli bo'ladi. Quvonch, g'am, qo'rquv yoki ishonch kabi tuyg'ular chuqurroq va keskinroq namoyon bo'ladi. Bu ularning adabiy asarlarga, ayniqsa **dramatik voqealarga boy og'zaki ijod namunalariga** bo'lgan qiziqishini va ehtiyojlarini kuchaytiradi. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Ur to'qmoq" ertaklari "Alpomish" va "Go'ro'g'li" kabi dostonlar yoshlarda sabr, fidoyilik, jasorat, sadoqat va do'stlik kabi sof insoniy fazilatlarni uyg'otadi.²

Yana bir muhim xususiyat — bu taqlidga moyillik. Yoshlar ko'pincha o'zlariga ideal qahramonlar topadilar va ularga ergashishga harakat qiladilar. Bu jarayon tarbiya uchun katta imkoniyat yaratadi. Xalq dostonlaridagi mard, vatanparvar, halol obrazlar yoshlar ongida axloqiy ideal qahramon sifatida mustahkam o'rtnashadi. Shuningdek, bu bosqichda inson tarbiyaviy ta'sirga ochiq bo'ladi. Shuning uchun, aynan yoshlik davrida xalq og'zaki ijodi vositasida ijobiy qadriyatlarni singdirish o'z samarasini beradi. Shu jihatdan ertaklar, maqollar, dostonlar — faqatgina badiiy asar emas, balki yosh ongini shakllantiruvchi **kuchli psixologik vosita** vazifasini o'taydi.

O'zbek xalq ertaklari xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarining ifodasidir. Bu ertaklar nafaqat

¹ Yo'ldoshev A. Xalq og'zaki ijodi asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.

² Mirzayev M. "Alpomish" – milliy qadriyatlar timsoli. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

ko'ngilochar, balki kuchli tarbiyaviy va ma'naviy mazmunga ega. Xalq ertaklarida ezgulik va yovuzlikning kurashi asosiy g'oya sifatida ko'rsatiladi. Bunday syujetlar yoshlar ongiga ezgulik har doim g'alaba qozonishi, mehnatkashlik, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlar qadrlanishini singdiradi. Masalan, "Meshpolvon", "Malikayi Ayyor"

Ertaklar ko'pincha qahramonlik va mehnatsevarlik g'oyalari bilan boyitilgan bo'ladi. "Boy va kambag'al", "Afandi haqidagi ertaklar" kabilarda sodda, kamtarin, halol qahramonlar har doim hayot sinovlaridan o'tib, baxtli hayotga erishadi. Bu obrazlar orqali yoshlar psixikasida mehnatga muhabbat, to'g'rilikka intilish, sabrli bo'lish kabi qadriyatlar shakllanadi.³

Bundan tashqari, xalq ertaklarida tasavvur va tafakkur kuchining rivojiga xizmat qiluvchi obrazlar va voqealar ko'p uchraydi. Ertaklardagi sehrli voqealar, hayvonlar bilan suhbatlashish, mo'jizaviy buyumlar kabi elementlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, ijodiy fikrlashga undaydi. Psixologik nuqtai nazardan, bu yoshlarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertaklar orqali bolalar va yoshlar ma'naviy dunyosini boyitadi, xalqning axloqiy qarashlarini angelaydi, ijtimoiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Bunday ertaklar og'zaki an'ana orqali avloddan avlodga o'tganligi sababli, ular milliy o'zlikni anglashda ham muhim o'rin tutadi.

Shu boisdan, o'zbek xalq ertaklari yosh avlodni tarbiyalashda bebaho vosita bo'lib, ularning shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan o'zbek xalq maqollari esa xalq tafakkurining yirik namunasi, hayotiy donolik va tarbiya manbai hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlik davrida bu kabi qisqa, lekin mazmunan boy iboralar insonning axloqiy qarashlari va dunyoqarashining shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. Maqollar nafaqat saboq beradi, balki yoshlar ongiga ijtimoiy va axloqiy mezonlarni singdiradi. Ularni doimiy yodga olib eslab turish va ularga amal qilish inson hayotidagi ko'plab bo'shliqlarni to'ldiradi va shukronalik tuyg'usini uyg'otadi. Masalan, "Mehnat qilib topganing — qand-u, asal totganing" degan maqol yoshlar ongiga mehnatning qadri, halol rizqning shirinligi haqida saboq beradi. Bu psixologik jihatdan ularda mas'uliyat hissini, sabr-toqatni va harakatga bo'lgan ishonchni shakllantiradi.

Axloqiy tanqid va fikr erkinligi kabi tushunchalar esa "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib", "Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt" kabi maqollar orqali o'rgatiladi. Yoshlar bu orqali haqiqatni aytish, egri yo'ldan qaytishdan qaytish, tanqidga ochiqlik kabi muhim fazilatlarni o'zlashtira boshlaydi.

"Avval o'yla, keyin so'yla", "Aytilgan so'z – otilgan o'q" kabi maqollar esa nutq madaniyati va fikrni ifoda etish mas'uliyatini anglashga yordam beradi. Bu yoshlarning tafakkurini puxta va og'zaki muloqotini madaniyatli qiladi. Og'izga kelgan har qanday

³ Karimova D. O'zbek xalq maqollarining psixologik tahlili. – Toshkent, 2016.

soʻzni aytmaslik, aytmoqchi boʻlgan soʻzini esa chuqur mulohaza qilib, oʻylab gapirishga undaydi.

Shaxsiy javobgarlik va oʻzini tahlil qilishga undovchi maqollar ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, “Aqlli oʻzini ayblar, aqlsiz doʻstini”, “Afting qiyshiq boʻlsa, oynadan oʻpkalama” degan maqollar oʻz xatolarini tan olish, oʻzini tanqid qila bilish kabi jihatlarni rivojlantiradi. Bu psixologik jihatdan ichki nazorat va tanqidiy fikrning shakllanishiga xizmat qiladi, bundan tashqari xatoni boshqalardan emas oʻzidan izlashga chorlaydi.⁴

Maqollar koʻp hollarda hayotiy tajriba orqali kelgan muhim haqiqatlarni anglatadi:

“Arpa ekkan arpa oʻrar, bugʻdoy ekkan bugʻdoy”, “Andishaning oti — qoʻrqoq”, “Arqogʻini koʻrib boʻzini ol, onasini koʻrib qizini ol” kabi maqollar sabab–natija bogʻliqligini, ehtiyotkorlikni, tajriba orqali xulosa chiqarishni oʻrgatadi.

Shu tariqa xalq maqollari yoshlarning shaxsiyati, fikrlash tarzi, axloqiy qarashlarini shakllantirishda bevosita xizmat qiladi. Ular hayotiy saboq, odob, axloq, doʻstlik, mehnat va maʼnaviy qadriyatlar haqida aniq, esda qolarli tushunchalar bilan taʼsir koʻrsatadi.

Oʻzbek xalq eposlarining eng mashhurlaridan biri - “Alpomish” dostoni - nafaqat xalqning tarixiy xotirasini, balki uning axloqiy gʻoyalarini, maʼnaviy qadriyatlarini, yosh avlodga berayotgan tarbiyasini ham ifoda etadi. Dostonda keltirilgan har bir voqea, har bir hikmatli jumla yoshlar uchun saboq boʻlishi mumkin. Quyida yoshlar uchun ibratli boʻlgan “Alpomish” dostonidan bir parchani koʻrib chiqamiz:

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob oʻqib oʻtirgan paytda baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi...

- *Shunda u aytdi: “Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor boʻlsa, koʻnglini xushlab joʻnatsa, bul ham saxiy;*
- *Agar joy bor turib, joy yoʻq, deb qoʻndirmay joʻnatsa, bul odam baxil.*
- *Vaqti - bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan oʻtsa, chap oyogʻini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqqiga duo oʻqib oʻtsa, bul ham saxiylik;*
- *Agar har kim mozordan oʻtganda, chap oyogʻini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqqiga duo qilmay oʻtsa, bul ham baxil.*
- *Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan”.*⁵

⁴Haydarova G. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.

⁵ “Alpomish”. Oʻzbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1990.

Ushbu “Alpomish” dostonidan olingan parcha o‘zida chuqur sermazmun ma’noni qamrab olgan, shu sabab uni quyida biroz tahlil qilib o‘tamiz. Dastlabki, “Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo‘lsa, ko‘nglini xushlab jo‘natsa, bu ham saxiy” deb boshlangan bu tanbehidan sezishimiz mumkinki, mehmondo‘stlik, ochiqlik va insoniy mehr yoshlar ongiga singdiriladi. Bu yoshlar ongida ijtimoiy empatiya - boshqalarni his qilish va qadrlash fazilatini shakllantiradi. “Mozor oldidan o‘tayotganda duo o‘qish”, “Zakot berish” - bu harakatlar orqali yoshlar diniy-axloqiy qadriyatlarni, saxovat, insof, boshqa odamlarning haqqini hurmat qilishni o‘rganadi. Bu esa emosional ong va ijtimoiy mas’uliyatning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Aksincha, har bir saxovatli inson qilishi kerak bo‘lgan harakatlarni bajarmaslik — baxillik, befarqlik, ichki torlik sifatida ko‘rsatiladi. Bu ta’riflar orqali yoshlar yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, o‘z harakatlariga tanqidiy yondashishni o‘rganadi.

Shunday qilib, bu parcha yoshlar shaxsida tarbiyaviy, diniy, axloqiy va ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari ayni shu dostonda Oybarchinning umr yo‘ldosh tanlash uchun qo‘ygan shartlarini psixologik yetuklik mezoni sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

Oybarchinning quyidagi shartlari yosh o‘quvchi ongiga ideal erkak obrazini taqdim etadi:

1. “Qirq kunlik yo‘l — Boboxonning orasi.

Boboxon tog‘idan poyga qilaman,
Oti ildam boybachchaga tegaman.”

Bu shartda jismoniy bardavomlik, sabr-toqat, yo‘l bosib o‘tish orqali mashaqqatni yengish, maqsad sari qat’iy harakat qilish kabi psixologik jihatlar ilgari suriladi. Bu yoshda shakllanadigan irodaviy fazilatlar asosidir.

2. “Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
Men tegaman shul yoyandoz polvonga.”

Bu sinov orqali Oybarchin ichki kuch, ruhiy barqarorlik, keskin vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaslik, qattiq sinovlarda chidamlilik kabi psixologik jihatlarni sinaydi.

3. “Ming qadimdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul qirag‘ay merganga.”

Bu shart — diqqat, aniqlik, hushyorlik va fikrni jamlay olish kabi psixologik ko‘nikmalarning ifodasidir. Bunday sifatlar yoshlarda kognitiv rivojlanishni ifodalaydi.

4. “Kurash qilib to‘qson alpni yiqqanga,

Men tegaman nor bilakli polvonga.”⁶

Bu yerda esa jismoniy kuch bilan birga mardlik, jasorat, daxlsizlik, shaxsiy ustunlikka erishish ko‘zda tutiladi. Bu esa yosh yigitlar uchun nafaqat tana, balki ruhiy va ijtimoiy tayyorgarlik mezonidir.

Oybarchinning bu shartlari orqali doston yosh avlodga ideal yigit — ma‘nan, ruhan, jismonan yetuk shaxs qanday bo‘lishi kerakligini aniq ko‘rsatib beradi.

Nafaqat “Alpomish” dostoni, balki shu kabi ko‘plab xalq og‘zaki ijodi namunalari bugungi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Bugungi zamon yoshlari tezkor texnologiyalar, raqamli aloqa va turfa-ta’sirlar ichra ulg‘aymoqda. Bunday sharoitda xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa dostonlar - yosh avlodning ma‘naviy immunitetini kuchaytirishda bebaho tarbiyaviy vosita bo‘lib qolmoqda. Xususan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” va “Kuntug‘mish” dostonlari nafaqat qadimgi xalqning orzu-intilishlari, balki bugungi yoshlar uchun ham hayotiy mezonlarni belgilovchi manbadir.

Dostondagi qahramonlar - Alpomish nomini olgan Hakimbek, Oybachin, Qorajon kabi obrazlar orqali yoshlar:

- ✓ o‘z so‘ziga sodiq bo‘lish,
- ✓ saxiylik va halollik,
- ✓ sabr, matonat va iroda,
- ✓ do‘stlik, muhabbat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni angelaydi.⁷

Alpomishning jismoniy kuchi bilan birga, uning ruhiy chidamliligi, ota-onaga sadoqati, va‘dasiga sodiqligi yoshlar uchun ideal qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Barchinoy esa aql-zakovat, qat’iy qarorlar, psixologik yetuklik namunasi sifatida ayol obraziga yuksak e‘tibor qaratadi.

Shuningdek, dostonda keltirilgan oqilona nasihatlar va saxovat-baxillik haqida bayonlar, Oybachinning shartlari orqali bugungi yoshlar ham o‘zlarini sinab ko‘rishadi:

- Men qanday insonman? Qaysi fazilatlar menda bor? Qaysilar ustida ishlashim kerak? singari savollarga javob topishga harakat qilishadi.

Shunday qilib, “Alpomish” dostoni shunchaki tarixiy voqelik emas. Bu har bir yosh ongida, psixik rivojlanishida shaxsiy tarbiya, ruhiy yetuklik, ma‘naviy o‘sish yo‘lini boshlab beruvchi yo‘lchi yulduzdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev A. Xalq og‘zaki ijodi asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.

⁶ “Alpomish”. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990.

⁷ Jo‘rayev O. Mumtoz va xalq eposlari tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

2. Haydarova G. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
 3. Jo‘rayev O. Mumtoz va xalq eposlari tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
 4. Karimova D. O‘zbek xalq maqollarining psixologik tahlili. – Toshkent, 2016.
 5. Rasulov T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida axloqiy qadriyatlar. – Termiz, 2020.
 6. Mirzayev M. "Alpomish" – milliy qadriyatlar timsoli. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
 7. "Alpomish". O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990.
-

